

## Shaxs Ma'naviyatining Shakllanishida Virtual Olamning Xissasi

*Madumarov Talantbek Tolibjonovich<sup>1</sup>, Jalilova Muhayyo<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Bu maqola "Virtual olam" va "Globallashuv" mavzulariga bag'ishlangan. Virtual olam, kompyuter texnologiyasi orqali yaratilgan sun'iy dunyoni ifodalaydi. Maqolada globallashuv jarayonining insoniyatga ta'sirini va uning o'ziga xos jihati haqida ko'proq ma'lumot berilgan. Shuningdek, maqolada "ommaviy madaniyat"ning o'ziga xos ahamiyati ta'riflangan. U, insonlarning axloqiy va ma'naviy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan holda ta'riflanadi va yurtimizda buning ahamiyati ko'tarilgan. Maqolada globallashuv va insoniyatning rivojlanishining joriy davrlarda ta'sirini va bujaratlarini ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Virtual olam, internet, globallashuv, ommaviy madaniyat, kompyuter texnologiyasi, sun'iy dunyo.

Virtual olam – kompyuter texnologiyasiga asoslangan dasturlash orqali qurilgan sun'iy yaratilgan dunyo". Virtual olamda inson ma'lum profil yaratadi va zamonaviy texnologiyalar imkoniyatidan foydalanib boshqa profil egalari bilan virtual olamning turli shakldagi makonlarida ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Bunga elektron pochta, sms, mms, internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar, online video o'yinlar, virtual makon kabilarni misol keltirish mumkin. "Virtual olam foydalanuvchilarga bo'sh vaqtlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan. "Virtual olam" o'zi bilan hissiy olamni va undagi insonning aniq kechinmalarini eslatishi muhim emas, balki tegishli g'oyalar qanchalik g'alati bo'lmasin, insonning ushbu g'oyalarga mos keladigan olamda bo'lishi muhimdir. Virtual olam – kompyuter o'yinlari yangi virtual dunyo tushunchasini yaratdi, unda mavjud dunyoning ko'pchilik qirralari ifodalanadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari kundalik hayotimizga tobora faol joriy etilib,

allaqachon odatiy vositalarimiz qatoriga kirishga ulgurdi. Ulardan jamiyat hayotining barcha sohalarida: ish joyida, ta'lim muassasalarida, ko'chada, uyda, umuman istalgan joyda foydalanilmoqda<sup>3</sup>. Ma'lumki, kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalari jamiyat, shaxs rivojlanishida katta ta'sirga ega. Ammo mazkur texnologiyalardan to'g'ri maqsadda foydalanmaslik bir qator salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqarmoqda. Bu salbiy ta'sirlar haqida ko'p ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazilgan bo'lsada hozirgi kunda ham jamiyat bu sohadagi muammolarga duch kelmoqda. Zamonaviy taraqqiyot bir joyda turgani yo'q, kundan-kunga yanada mukammal uskunalar va qulayliklarni taqdim etmoqda. Hozirgi kunda ko'plab ota-onalar ham virtual olam vositalaridan (internet saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari, elektron pochta, smsdan tortib online video o'yinlargacha) o'z kundalik hayotlarida keng foydalanmoqdalar. Biroq shu bilan birga, o'z farzandlarining ko'p vaqtlarini kompyuter va mobil o'yinlarini o'ynash bilan o'tkazayotganliklaridan xavotirga tushmoqdalar. Xatto ba'zi ota-onalarning ham virtual qaramlik holatiga tushib qolganini eshitib qolamiz. 3D grafikali zamonaviy video o'yinlar va virtual haqiqat maydonlari yosh avlodni o'ziga tobora ko'proq rom etmoqda va qaramlikni yuzaga keltirmoqda. Ba'zan bolalarni ular navbatdagi darajadan o'tmagunlariga qadar yoki keyingi strategik vazifani yechmagunlarigacha virtual hayotdan ajratishning imkoni bo'lmay qoldi. Afsuski, kompyuter o'yinlarini butunlay taqiqlashning imkoni yo'q, bolalar baribir, biror bahona yoki aldovlar bilan zamonaviy qurilmadan foydalanib, undagi virtual o'yinlarning "sehrli olamiga" berilib ketmoqdalar. Shu kunlarda ko'p ota-onalar

<sup>1</sup> Yu.f.d. prof, Andijon davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti, dekani

<sup>2</sup> Andijon Davlat Universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti talabasi

<sup>3</sup> I.A.Karimovich. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent-"Ma'naviyat"-2010. (76-118) bet.



farzandlarini virtual qaramlikdan asrashning samarali yo'li bolalarning o'yin o'ynash vaqtlarini cheklash; smartfon va kompyuterlardan foydalanishni ta'qiqlash, bolani turli boshqa vazifalar bilan chalgitish deb hisoblamodalar. Hozirgi kunda olib borilgan turli tadqiqotlarda taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ko'ra, jahondagi 12–13 yoshdagi taxminan 80 foiz o'smir bolalarda turli darajadagi axborot qaramligini kuzatish mumkin ekan. Bolalarning virtual olamga berilib ketishlarining asosiy sabablaridan biri - haqiqiy hayotda ota-ona e'tiborining yetishmasligi va tengdoshlari borasida qabul qilinmaslik hisoblanadi. Odatda bu kabi qaramlikka maktabda, oilada nizoli munosabatlarga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar duch keladilar, bunga kundalik hayotlarida ularni jiddiy jalb etaoladigan muvaffaqiyatli qiziqishlarining yo'qligi asosiy sabab bo'lmoqda. Ota-ona o'zi erisholmagan sohada, o'zi muvaffaqiyatga erishgan yoki muvaffaqiyatli soha deb o'ylagan sohalarida bolasini yetuk mutaxassis qilgisi keladi.

Masalan, bolaning otasi yoki onasi musiqachi va bola ham musiqa bo'yicha qo'shimcha to'garaklarga qatnashadi, ammo uni ko'proq sport qiziqtiradi, lekin oilaviy an'analarni buzish mumkin emasligi, bola uni tushunmasliklari hamda eshitmasliklari sababli u kattalardan "yashirinib olish" yo'lini izlaydi. Bunday bolalarning bo'sh vaqtlari bo'lmaydi, barchasini butunlay o'yinlarga sarflay boshlaydi yoki o'zlariga virtual olamdan biror dardkash, suhbatdosh topishga harakat qilishadi. Oqibatda tushkunlik holatlari va hatto ba'zilarida atrofdegilar bilan muomala va muloqotdan qochishga moyillik kabi holat yuzaga kela boshlaydi.

Shaxs manaviyati - xar shaxsga tegishli bulib, uning ichki ruxiy holati, xatti-xarakatlari, munosabatlari va boshka qirralarini oz ichiga oladi.

Har bir inson muayyan bir jamiyatda, muayyan bir insonlar jamoasi ichida yashaydi, muayyan bir millatga mansub boladi. Tabiiyki, har bir alohida inson osib-ulg'ayar ekan, unga atrof-muhitida yashayotgan insonlarning tasiri boladi. Insonning manaviy kamoloti ayni shu muhitning tasiridan boshlanadi. Har bir shaxs, ozi buni chuqur idrok qiladimi, yoqmi, qati nazar, biror elat yo millatga mansub bo'lmay iloji yoq, hech bir inson eldan butkul ajralib yashamaydi. Prezidentning g'oyatda hikmatli iborasi bilan aytganda, har bir inson "ozini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda oylab, mehnat qilib yashagandagina manaviyat bilan tutashadi". Buning manosi, shaxs manaviyati voqelikda millat manaviyatidan ayro, undan tashqarida bolmaydi. Shunday ekan, millat manaviyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lmay turib, alohida shaxs manaviyatini ham organish imkondan tashqari. Agarchi, tarixan va nazariy jihatdan millat manaviyati, tom manoda olganda, ushbu millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi otmish, bugun va

kelajakdagi barcha shaxslar manaviyatining majmuidan iborat bolsa-da, voqelikda har bir shaxs manaviyati millat manaviyatidan oziqlanadi, uning asosida kamol topadi. Shaxs manaviyati har bir inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uygunlik darajasi. Bu uygunlik har bir shaxsning imoni, ilmi, masuliyati, mehri orqali namoyon boladi va Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat tuyg'ularida ifodalanadi.

Yurtimizning birinchi prezidenti I.A Karimov aytganidek, "Manaviyat taqdirning exsoni emas. Manaviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan va qol bilan mexnat qilishi kerak<sup>4</sup>".

Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davmi turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana biron yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat, ratsional mag'iz bor. Chunki ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rangbarang hayotning qaysidir belgi-alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda. Bunday ta'rif, menimcha, ko'p tomondan masalaning mohiyatini to'g'ri ifodalaydi. Nega deganda, hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning narigi

<sup>4</sup> Karimova G. " Virtual olam va tarbiya masalalari" 03.11.2009



chekkasida turib zudlik bilan xabar topishi hechkimga sir emas. Ana shunday globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiy nuqtayi nazaridana qaraganda, bu jarayon muqloqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

Shu ma'noda, globallashuv - bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda - ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz. Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgari gidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi.

Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini so'g'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar. Bu haqda gapirganda, men ilgari bildirgan ba'zi fikrlarni takrorlash o'rinli, deb o'ylayman. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, "bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega".

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televideniye, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofni temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz. Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.<sup>5</sup>

Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin. Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha - qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni, kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutloqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak<sup>6</sup>. Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzulqik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay

<sup>5</sup> Tulyayev.A.I. "Vertual axborot makonidagi taxdidlar va ularning oldini olish zaruriyati" falsafa va xuquq-N01, 2020yil 81-93 bet

<sup>6</sup> Mavluda Yoqubova Ijtimoiy taraqqiyot va madaniyatning globallashuvi. T:NISHON-NOSHIR 2010: 58-67 bet



qo‘ymaydi. O‘z-o‘zidan ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq ko‘z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon-atrofimizda mavjud bo‘lgan, tobora kuchayib borayotgan ma‘naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. Shu bois yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz o‘yinlar to‘g‘risida biryoqlama va soxta tasavvur bo‘lmasligi kerak. Ma‘lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizm ida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta‘bir joiz bo‘lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin.<sup>7</sup> Ana shunda johil aqidaparastlarning «da‘vati» ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham ularga o‘z ta‘sirini o‘tkaza olmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimovich."Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent-"Ma'naviyat"-2010.
2. Karimova G. " Virtual olam va tarbiya masalalari" 03.11.2009
3. Tulyayev.A.I. "Vertual axborot makonidagi taxdidlar va ularning oldini olish zaruriyati" falsafa va xuquq-N01, 2020yil
4. MavludaYoqubova Ijtimoiy taraqqiyot va madaniyatning globallashuvi.T:NISHON-NOSHIR 2010-yil
5. Мадумаров, Т., & Фуломжонов, О. (2024). ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА УСТУВОР ВАЗИФАЛАР ВА ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 4(2), 48-51.
6. Botirovich, I. B. (2023). ABOUT THE LOCATION OF THE TAJIK POPULATION IN THE KOKAND KHANATE.
7. Nasriddinovich, A. A., & Isroiljon ogli, K. I. (2022). PROBLEMATIC ISSUES AND SOLUTIONS TO THE USE OF FAIRY TALES IN THE EDUCATION OF CHILDREN AND STUDENTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 518-521.*

<sup>7</sup> I.A.Karimovich."Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent-"Ma'naviyat"-2010. (76-118) 76 - bet.

